



BOLA QOBILYATINI O'STIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING O'RNI

Nurmatova Fayyoza Arslon qizi

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

*81-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bola qobiliyatini rivojlantirishda interaktiv metodlarning ahamiyati yoritilgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali o'quvchilarning tafakkurini faollashtirish, bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Interaktiv metodlarning turlari, ularning samaradorligi hamda amaliyotdagi qo'llanilishi misollar bilan ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: interaktiv metodlar, bola qobiliyati, ta'lim sifati, pedagogik yondashuv, o'quv jarayoni, faol ishtirok, kreativ fikrlash

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi, talabalarga faqat tayyor bilimlar berib kelingan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topib, mustaqil ravishda o'rganib va tahlil qilib, ushbu qilingan ishlardan xulosalar keltirib chiqarishlariga undaydi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan birgalikda boshqaruvchilik funksiyasini bajaradi.

Bunda ta'lim beruvchilarining oldiga qo'yilgan maqsad mustahkam fan asoslarini o'rganishdan tashqari ularni talabalarga etkazish yo'llari, zamonaviy pedagogik texnologiya bilan qurollanishi, o'qitishda fanlarni bog'lash orqali tushuntirish zarur. Shu nuqtai nazardan turli fanlarning o'qitish uslublarini ishlab



chiqish va ular bilan o‘qituvchilarni qurollantirish, boshqa fanlar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish zarur omillardan biridir.

Zamonaviy ta’lim jarayoni shiddat bilan o‘zgarayotgan jamiyat ehtiyojlariga moslashmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning intellektual, ijodiy va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirishda pedagogik metodlarning yangilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, interaktiv metodlar bola qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Interaktiv metodlar — bu o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalgan etuvchi, ularning o‘zaro fikr almashuvi, mustaqil xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi yondashuvlardir. Ular orqali bola o‘z fikrini erkin ifoda etishga, jamoa bilan ishlashga va muammolarni tahlil qilishga o‘rganadi.

Bola qobiliyatini rivojlantirishda interaktiv metodlarning afzallikkabi

1. Faol ishtirokni ta’minlaydi. Bola passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi.
2. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Muammoli savollar, “aqliy hujum”, “rol o‘ynash” kabi metodlar orqali bola yangicha fikrlashga undaladi.
3. Shaxsiy yondashuvni qo’llab-quvvatlaydi. Har bir o‘quvchining qobiliyati va qiziqishlariga mos usullarni tanlash imkonini beradi.
4. Jamoaviy ishslash ko‘nikmalarini oshiradi. Guruhiy ishlar orqali ijtimoiylashuv kuchayadi.¹

Masalan, boshlang‘ich sinflarda “konsept xarita” tuzish orqali mavzuni umumlashtirish, matematikada “savol-javob estafetasi”, ona tili darslarida “munozara” metodidan foydalanish bolalarning tafakkurini rivojlantiradi. Shu kabi yondashuvlar ularning bilimni o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

Pedagogik texnologiyalarning afzalligi shundan iboratki, unda olib borilgan mashg‘ulotlar muvaffaqiyatli o‘tilishining 80 foizi ta’lim jarayonini to‘g‘ri loyihalashtirish, olib borish va uni amalga oshirishdan iboratdir.

¹ R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo’llanma. - T.: 2013 y. -279 bet



Interfaol usullardan oqilona foydalanish ta’lim jarayoniga jo‘shqinlik, izlanuvchanlik kayfiyatini baxsh etadi, o‘quvchilarda o‘z imkoniyatlariga ishonch va o‘z mehnati natijasidan mammunlik hissini vujudga keltiradi, bilishga oid qiziqishlarini yanada orttiradi. Bular esa, ta’lim jarayonida o‘quvchilar shaxsi barkamollashuvining muhim omillari bo‘lib hisoblanishi tabiiydir. O‘qituvchi va o‘quvchilarni maqsadli natijaga erishishiga qanday texnologiyani tanlashlari ularning ixtiyorida chunki xar ikkala tomonining asosiy maqsadi aniq bo‘lib, u natijaga erishishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Natijaga erishish uchun yoki kompyuter bilan ishlash lozim yoki film, tarqatma material, chizma va plakatlar kerak bo‘ladi.

Interaktiv metodlardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo‘ladiki, buning oqibatida har o‘quvchilarni o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi, ijtimoiy hayotda o‘zi egallagan o‘rinni barqarorlashtiradi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Interaktiv metodlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy ko‘nikma va malakalaraga aylanishini ta’minlabgina qolmay, balki o‘quvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi.

Ishlab chiqarish texnologik jarayon ma’lum mahsulot uchun ishlanganidek, yangi pedagogik texnologiya ham har qanday fan uchun o‘qitish texnologiyasining asosiy elementlarini o‘z ichiga olgan umumiyl uslubiyot asosida ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Bu ommaviy o‘qitish sharoitida, o‘quvchilarni to‘la o‘zlashtirishini ta’minlovchi yagona to‘g‘ri yo‘ldir

Xulosa qilib aytganda, bola qobiliyatini shakllantirishda interaktiv metodlar asosiy o‘rin tutadi. Ular nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni mustaqil fikrlovchi, faol, tashabbuskor shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagoglar interaktiv metodlardan foydalanishni ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qabul qilishlari lozim. Shuningdek, Bugungi kundagi zamonaviy ta’limning talabi ta’lim va tarbiya jarayonlariga turli xildagi pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda muammolarni mustaqil ravishda ko‘ra oladigan va ularni ijobjiy hal qila oladigan,



ijodkor, yuksak ijodiy salohiyatga ega bo‘lgan yangi avlod vakillarini yetishtirishdan iboratdir. Ilgari esa ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli shaxs bo‘lish uchun yaxshi ijrochi bo‘lish, ma’lum bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish yetarli bo‘lgan xolos.

Interaktiv metodlar bolalarning tasavvurini, fantaziyasini rivojlantirishga imkon beradi, atrofdan olgan ta’surotlarini yanada boyitadi, bilimlarni qiziqarli shaklda taqdim etadi, ularning kuchli va uzoq muddatda o‘zlashtirilishi va tizimlashtirilishini ta’minlaydi, nutqini yanada rivojlantiradi, maksimal darajada imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi, ijodkorlikning namoyon bo‘lishini rag‘batlantiradi. Interaktiv metodlar asosida ishlaydi, bolalar va pedagoglar hamkorligi muvaffaqiyatli sharoitlarni yaratilishi, o‘z kuchlari va imkoniyatlariga ishonch, dunyoni o‘rganishga qiziqishini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2013 y. -279 bet
2. O‘J. To‘ldoshev. Umumiyl pedagogika. - T.: "Fan va texnologiya", 2017 y. 376
3. M.X. To‘xtaxodjayevaning umumiyl tahriri ostida. Pedagogika. Darslik.T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
4. B.X. Xodjayev. Umumiyl pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiyl pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - T.: "Fan va texnologiya" 2019 y. -296 bet.